



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'

### "Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" respublika tanlovini o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan umumta'lismuassasalarida faoliyat yuritayotgan o'zbek tili o'qituvchilari orasidan mahoratli, tashabbuskor, faol o'qituvchilarni aniqlash, ularning ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va ish tajribasini ommalashtirish hamda o'zbek tilining ona tili hamda davlat tili sifatida o'qitilishi bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan amaliy ishlanmalar ko'lamini kengaytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 15-iyuldagagi 224-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida buyuraman;

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 15-iyuldagagi 224-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.

#### 2. Quyidagilar:

"Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" respublika tanlovini (keyingi o'rnlarda tanlov deb yuritiladi) o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (keyingi o'rnlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 15-iyuldagagi 224-sonli buyrug'i 1-ilovasiga muvofiq;

tanlovni o'tkazish reja-jadvali 2-ilovasiga muvofiq;

tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublika tashkiliy qo'mitasi tarkibi (keyingi o'rnlarda Tashkiliy qo'mita deb yuritiladi) 3-ilovasiga muvofiq;

tanlov bosqichlari o'tkazish muddatlari jadvali 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tanlovni o'tkazish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashkiliy qo'mita tarkibi mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq;

tanloving ikkinchi bosqichi o'tkaziladigan ta'lim muassasasi va tanlov shartlarini o'tkazish reja-jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Barcha tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari mudirlariga;

besh kun muddatda Nizom bilan barcha pedagog xodimlarni tanishtirish hamda tanloving hududiy saralash bosqichlari uchun tashkiliy qo'mitalar tarkibini shakllantirish;

bir hafta muddatda ishtirokchilarning kelib-ketish sharoitlarini inobatga olgan holda, tanloving birinchi bosqichi o'tkaziladigan ta'lim muassasalarini belgilash hamda tanlov shartlarini o'tkazish reja-jadvalini ishlab chiqish;

tanloving birinchi bosqichini belgilangan muddatlarda uyushqoqlik bilan shaffof, xolisona vaadolatli o'tkazilishini ta'minlash;

tajribali pedagoglar, professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyalarini shakllantirish va tasdiqlash;

budget va homiylik mablag'lari, qonunda ta'qilanganman boshqa manbalar hamda kasaba uyushmalari tashkilotlarini jalb etgan holda tanlov g'oliblarini o'rnatalgan tartibda rag'batlantirish;

tanlov g'oliblarining navbatdagi bosqichlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish;

tanlov bosqichlari yakuni yuzasidan hujjatlarni Nizomda belgilangan talablar asosida rasmiylashtirish hamda yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi respublika ta'lim markaziga axborot berish;

tanloving ikkinchi bosqichi ishtirokchilarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashkiliy qo'mitasi belgilagan muddatlarda tanlov o'tkaziladigan hududlarga o'z vaqtida yetib kelishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin;

5. Respublika ta'lim markazi (Q.Jubanov)ga:

besh kun muddatda tajribali pedagoglar, professor-o'qituvchilardan iborat hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyalarini shakllantirish;

tanloving birinchi bosqichini o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish yuzasidan hududiy xalq ta'limi bo'limlariga amaliy yordam ko'rsatish;

joriy yilning 2-oktabr kuniga qadar tanloving uchinchi bosqichi ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish;

har bir bosqich natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markaziga axborot kiritish vazifalari yuklatilsin.

6. Axborot, kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'limi (R.Xudaybergenov) Respublika ta'lim markaziga tanlovnvi o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tashkil etishda texnik jihatdan amaliy yordam ko'rsatsin.

7. Tashkiliy qo'mita:

tanlovnvi tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha jarayonlarni muvofiqlashtirsin hamda tanloving respublika bosqichida ekspert komissiyasi va hakamlar hay'ati a'zolarining faoliyatiniadolatli va xolis tashkil etish choralarini ko'rsin.

8. Nukus shahar xalq ta'limi bo'limi (P. Aqnazarov) tanloving ikkinchi bosqichi o'tkaziladigan ta'lim muassasasida tanlovnvi o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlasin.

9. Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi (B.Dilanov) tanlov ishtirokchilarini bepul yotoqxona bilan ta'minlash hamda yotoqxonada sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, yong'in va texnika xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

10. Mazkur tadbirni o'tkazish bilan bog'liq sarf -harajatlar 2021-yil uchun Xalq ta'limi vazirligining markazlashgan tadbirlar rejasida nazarda tutilgan tegishli mablag'lar doirasida amalga oshirilsin.

11. Davlat xaridlari bo'limi (G.Bekmuratova) tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilarini taqdirlash bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirish chorasini ko'rsin.

12. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (T.Dauletmuratov) vazirlikning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda tanlovnvi tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini yoritib borishni ta'minlasin.

13. Murojaatlar bilan ishslash bo'limi (M.Esbosinov) o'rnatilgan tartibda ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo'linmalari hamda vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalarga yetkazsin.

14. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rribosari Sh.Tadjimuratov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

R.Reimov



Nukus shahar

2021-yil 19-Uy

No 174

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Xalq ta'lifi vazirining  
2021-yil "19" uyondagi  
174-sonli buyrug'iga 1-ilova

"Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" tanlovini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita

## TARKIBI

1. Sh.Tadjimuratov Vazir o'rinosari, tashkiliy qo'mita raisi
2. Q.Jubanov RTM direktori, tashkiliy qo'mita raisi o'rinosari
3. N.Matlatipova Vazirlikning davlat tili bo'yicha mas'ul xodimi, RTM o'zbek tili fani metodisti, tashkiliy qo'mita raisi o'rinosari
4. M.Asemetdinov Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, a'zo
5. T.Dauletmuratov Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi boshlig'i, a'zo
6. Z.Ismailova Respublika ta'lim markazi qoraqalpoq tili metodisti, a'zo
7. Lavozimiga ko'ra Barcha tuman (shahar)xalq ta'lifi bo'limi mudirlari, a'zo

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
 Xalq ta'lumi vazirining  
 2021-yil "19" uren  
 -sonli buyrug'iiga 2-ilova  
 174

**"Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" tanlovini o'tkazish Reja-jadvali**

t/r	Amalga oshiriladigan ishlar	Amalga oshirish shakli va tanlovni o'tkazish joyi	Muddatlari
1.	Tanlovnинг иккинчи босқичини о'tkazish	Nukus shahridagi 27-sonli maktab bazasida: 1) Onlayn test sinovidan o'tkaziladi 2) Taqdimot	2021-yil 27-sentabr 28-30-sentabr
2.	Ishtirokchilarning ikkinchi bosqichda olgan ballari to'g'risidagi ma'lumotni elektron (tasdiqlangan) Respublika ta'lim markaziga taqdim etish	Ikkinchi bosqichda ishtirok ergan barcha qatnashchilarning to'plagan ballari to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilib, Respublika ta'lim markaziga taqdim etiladi.	2021-yil 2-oktabr

Izoh: Har bir bosqich [www.til.gov.uz](http://www.til.gov.uz) va [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz), kkmetodika.uz rasmiy saytlarida, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritilib boriladi.

Ishtirokchilar soniga qarab tanlov shartlarini o'tkazish muddatlariga o'zgartirish kiritish mumkin